

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10822535>

MUSIQA MADANIYATI FANI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING TA’LIM-TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ibragimova Nozima Xurshedjon qizi

University of Business and Science nodavlat ta’lim muassasi magistranti

E-mail: inozima@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilarni ta’lim-tarbiyasini shakllantirishda musiqa madaniyati fanining o‘rni va pedagogik asoslari, o‘quvchilarni barkamol shaxs etib tarbiyalashning pedagogik omillari va unda amalga oshiriladigan ishlar borasidagi fikrlar yoritib berilgan. Maqolada o‘quvchilarni ruhiy, estetik, axloqan yetuk, ma’naviy sog‘lom shaxs etib tarbiyalashda va ta’lim berishda musiqa madaniyati fanining roli muhimligi nazarda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *musiqa madaniyati fani, barkamol shaxs, milliy ruh, milliy tarbiya, xulq-atvor, milliy hayot tarzi, o‘zbek xalq ijodi, sharq maqomlari, milliy fikrlash, milliy ong, umuminsoniy qadriyatlar, jamiyat, pedagogik omillar.*

PEDAGOGICAL BASES OF FORMATION OF STUDENTS’ EDUCATION BASED ON THE SCIENCE OF MUSIC CULTURE

Ibragimova Nozima Khurshedjon qizi

1st-year master’s student of the University of Business and Science, a non-state higher educational institution, majoring in pedagogy and psychology.

E-mail: inozima@gmail.com

ABSTRACT

In this article, the educational and pedagogical foundations of the science of music culture in the formation of students’ education, the pedagogical factors of educating students as well-rounded individuals and the work to be carried out in it are highlighted. In the article, the students are spiritually, aesthetically, morally mature the importance of the role of the science of music culture in educating and educating a mentally healthy person is assumed.

Key Words: *science of music culture, perfect personality, nation spirit, national education, behavior, national way of life, Uzbek national creativity, eastern statuses,*

national thinking, national consciousness, universal human values, society, pedagogical ideals.

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizning ko‘plab sohalarda rivojlanishi jadal sur‘atlarda oshib borishi, yurtimiz bunyodkorlarining, ya‘nikim yoshlarimiz qo‘lidadir. Shu boisdan yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasida ko‘plab pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Izlanishlar natijasiga ko‘ra maktablarda o‘tilayotgan har bir fanning keng ko‘lamli va yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta‘sir etishini shakllantirish yuzasidan keng tarmoqli ishlar olib borilgan. Xuddi shu fanlarning biri bu “Musiqqa Madaniyati” fanidir. Bu fanni barcha pedagog va mutahassislar bolalarning boshlang‘ich sinflaridanoq musiqiy bilimlar berishni boshlaydilar. Bu fan orqali o‘quvchilarning san‘atga nafasatga yetaklovchi hislari shakllantiriladi, estetik zavqi oshiriladi. O‘quvchilarni esa barkamol shaxs, ma‘naviy va ruhiy yetuk inson sifatida yetishtirish jamiyatimizning asosiy maqsadidir. Kishi hislatlari tafakkuri, ma‘naviyati va madaniyati barcha insoniy fazilatlarining asoslari oilada shakllanadi. Kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yosh avlodlarni milliy ruhda tarbiyalash davlat ahamiyatiga moyillik masalalaridan biridir. Farzandlarimizning ongini milliy ruhda shakllantirishda esa asosiy ko‘makchi sifatida biz milliy qadriyatlarimiz va milliy xalq qo‘shiqlarimizni olsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yurtimiz kelajagi qanday bo‘lishi esa yoshlarimizni milliy o‘zligini anglagan holda tarbiyalashga bog‘liq. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning PQ-112-son 02.02.2022-yildagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ham yosh avlodning ongida milliy musiqamiz va qadriyatlarimizni shakllantirish va o‘quvchilar ongiga milliylikimizni singdirish asosiy maqsad etib belgilab berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Musiqqa ta‘limining ham bola shaxsini shakllantirishdagi o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, ushbu fan o‘qitilishida samaradorlikni oshirish, shaxsning ta‘lim markazida bo‘lishiga e‘tibor qaratish musiqqa madaniyati fani o‘qtuvchilariga alohida ma‘suliyatni yelkalariga yuklaydi. Joriy o‘quv yilidagi o‘quv dasturi bola ruhiyati va ma‘naviy olamini go‘zallashtiruvchi, vatanga bo‘lgan mehr muhabbatni yanada kuchaytiruvchi an‘ana va qadriyatlarni tarannum etadi. O‘quvchilarni barkamol shaxs etib tarbiyalashda sharq musiqasi, milliy musiqalarimizning pedagogik asoslarini rivojlantirishda ko‘plab olimlar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan xalqimizning milliy mentaliteti, ta‘lim va tarbiya jarayoning ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga qaratilgan. O‘zbek bastakorlari, musiqashunos olimlaridan Xurshida Hasanova, Nadim Norxo‘jayev, N.Narzullayev, N.Qurbonova, Avaz

Mansurov va Soibjon Begmatov kabilar fan rivoji uchun o‘zlarining ko‘plab asarlari, o‘quv darsliklari va o‘quv qo‘llanmalari orqali o‘z hissalarini qo‘shishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada musiqa madaniyati fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarni musiqiy bilimlarini kuchaytirish, Sharq xalqlari mumtoz musiqa san’ati va madaniyati tarixi orqali o‘quvchilarni barkamol shaxs etib tarbiyalashning pedagogik omillari hamda yosh avlodni tarbiyasiga milliylikimizni singdirishga doir masalalar muhokama qilinadi. Uning asosiy omillari va qismlari tavsiflanadi.

Musiqa madaniyati fani orqali bolalarning tarbiyasini yuksaltirish masalalari o‘rganiladi. Musiqa tarbiyasi metodikasini egallash uchun maktab dasturida musiqaning kiritilishi, musiqa san’atining tarbiyaviy imkoniyatlarini obyekt sifatida zamonaviy o‘quvchi-yoshlarimizni shaxsini yaqqol tushunishi talab etadigan pedagogik asoslarga borib taqaladi. O‘zbekistonda o‘quvchilarni sharq musiqasi san’ati va madaniyati orqali barkamol shaxs etib tarbiyalashning pedagogik omillarini rivojlantirish mezonlari tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, milliy o‘zligini anglatish bu jamiyatdagi asosiy g‘oyalardan biridir. Yosh avlodning tarbiyasida milliy musiqa va qadriyatlarimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning ikkisi esa Vatanni sevish, milliy g‘ururni shakllantirishga yordam beruvchi vositalar hisoblanadi. Maktabda musiqa ta’lim-tarbiyasi inson ma’naviyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Eng avvalo esa musiqiy madaniyatlik darajasini yuksaltirish bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi orqali o‘quvchilarda muayyan musiqiy bilimlar, tushunchalar, malaka va ko‘nikmalar shakllanib, ular o‘z navbatida shaxsning musiqiy-ma’naviy dunyoqarishini yuzaga keltiradi. Maktablarda musiqa madaniyati fanini o‘qitish metodikasi musiqiy madaniyatni tarkib toptirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Yuqori 5-7 sinflar musiqa fanida asosan Sharq xalqlari mumtoz musiqa san’ati va madaniyati tarixi ulkan davrlar va bosqichlarni o‘z ichiga olganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Qadimgi Sharqda san’at uzoq muddat hunarmandchilikning bir qismi bo‘lib qolgan. Sharq musiqa san’at tarixini o‘rganishlar natijasiga muvofiq alohida yirik san’antkorlarning ijodlariga to‘xtala olmaymiz, bunga asosiy sabab esa ko‘plab san’at namunalari omma va xalq ichidan chiqqan noma’lum iste’dod egalari tomonidan yaratilgan.

Sharq olimlarining musiqasiga oid nazariy qarashlari asosida shakllangan turli xil g‘oyalarning jamiyatimizda tutgan o‘rni va ahamiyati haqida yetarlicha ma’lumotlar berilgan. Shu jumladan Abu Nasr Muhammad Farobiyning “Kitob al-musiqa al-kabir” ya’nikim, “Musiqa haqidagi katta kitob” risolasida ko‘plab sharq musiqasiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Abu ali Ibn Sinoning “Kitob um-shifo”

qomusida musiqa haqidagi risola yozib qoldirgan. Bu risolada esa inson tana a'zolarini va ba'zi kasalliklarni musiqa orqali davolash nazarda tutilgan. Abdurahmon Jomiyning 1414-1492-yillardagi "Musiqa haqida risola" kitobida xalq musiqa ijrochiligi va milliy cholg'u asboblari ijrochiligi haqida muhim va noyob ma'lumotlar berilgan. Mazkur sinflardagi musiqa madaniyati fanida o'quvchilar bilan musiqiy ishlar sohasidagi o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Sharq xalqari musiqa tarixi Yaqin va O'rta sharq davlatlari Eron, Turkiya, Pokiston, Afg'oniston, Hindiston, Ozarbayjon va Arab malakatlari xalqlarining tarixi kelib chiqishi milliy urf-odatlar va milliy qadriyatlariga tegishli bo'lgan musiqiy ma'lumotlarga boy davlatlardir. Bu Sharq davlatlarning har biri o'zining madaniy shakllanishiga oid ko'plab bosqichlarda rivojlanib kelgan. Bizgacha yetib kelgan manbalarda esa har bir xalqning o'ziga xos folklor janri, mumtoz musiqasi xalq o'yinlari va qadriyatlari, urf-odatlariga guvoh bo'lishimiz mumkin. Aynan bizga qardosh sharq mamlakatlarining bunday yuksak rivojlanish tarixi ham bizning yurtimiz tarixi va kelib chiqishiga bevosita bog'liq joylari ham mavjudligini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogikaga tayanib tarbiyani ko'pgina omillar bilan bog'liq jarayon deb hisoblaymiz. Kishining musiqa madaniyati nafaqat maktab ta'sirida shallanadi, balki unda oila, ommaviy axborot, ijtimoiymunosabatlar tizimi katta rol o'ynaydi. Shu bilan birglikda aynan maktab o'quvchilarining musiqiy qiziqishi shakllantiriladi. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi o'quvchi-yoshlar psixologiyasini o'rganishi va har biriga nisbatan individual yondoshishi, dars va mashg'ulot jarayonida ularning talab va istaklari qondirilishi uchun harakat qilishi, yaxshi ijodiy natijaga erishishga, har bir o'quvchi va tarbiyalanuvchilarni jalb eta olishi hamda yoshlarning ma'naviy ehtiyojini qondirishi uchun sharoit yaratishi lozim.

O'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va unga puxta ta'lim berish bilan bir qatorda, o'quv-tarbiyani yanada samaradorligini ta'minlash maqsadida cholg'u ijrochiligi malakalarini egallash uslubiyotining nazariyasi va unga xos bo'lgan o'rgatish texnologiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda majburiy ta'lim ta'lim muassalarining barcha bosqichlari musiqa madaniyati ta'limi mazmuni uchun o'quv material tanlash uning hajmini oshirish bilan emas, balki quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali belgilanadi:

-ushbu majburiy ta'limning umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati ta'limi mazmuni uchun o'quv material belgilanadi;

-ta'limda o'rganiladigan eng oddiy musiqiy tushunchalar, atamalar hamda kompozitorlar, bastakorlar to'rt asosiy musiqiy uslub haqidagi ma'lumotlarni oddiydan murakkabga qarab o'rganish;

-insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi.

O‘zbek xalq musiqa ijodiyotining sharq mamlakatlari musiqa ijodiyoti bilan mushtarakligi, umumiy ildizlari mavjudligi bobokalonlarimiz mutafakkirlarimiz va ma’rifatparvarlarimiz tomonidan chuqur e’tirof etilgan. O‘zbek xalqi milliy qadriyatlari negizida o‘zbek xalq musiqa ijodi xalqimizning har tomonlama badiiy aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Unda xalqimiz hayotining turli davrlardagi xalq ijodiyotining badiiy va ma’naviy ko‘rinishlari bilan bir qatorda, xalq pedagogikasining eng ilg‘or, ma’naviy-ma’rifiy yetuk g‘oyalarini umumlashganiligi bois, ularda yoshlarning yetuk axloqiy, ma’naviy tarbiyasi orqali ta’lim sohasida yuqori cho‘qqilarga erishish jamiyatimizning eng oliy maqsadidir.

O‘quvchi-yoshlarni ma’naviy hayotdagi ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, kuchli mafkuraviy salohiyatga ega bo‘lib shakillanish, davlat va jamiyatga foyda keltiradigan ma’naviy yo‘llarni ochib berishga e’tibor qaratish o‘qituvchi-utozlarning vazifalaridir. Biz o‘z oldimizga milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalalarini qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni shakillantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilib, ularning barchasiga yechim izlashning bir necha yo‘llarini amalga oshirsak, bu yurtimiz kelajagi va rivojlanishi uchun qo‘shgan eng ulkan hissamiz bo‘la oladi.

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarni san’atga jalb qilish va qiziqtirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish va o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashda milliy musiqa, xalq og‘zaki ijodiyoti-folklor, o‘zbek xalq maqomlari alohida o‘rin va afzalliklarni kasb etadi. Prezidentimiz ham aynan shu bosidan madaniyat va san’atga, yoshlarimizni ma’naviyatini yuksaltirishga oid ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirishga o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Shu jumladan, o‘zlarining ko‘plab qaror va farmoyishlarini imzolab kelmoqdalar. Misol uchun yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” va 2019-yildagi “Yoshlar ma’naviyatini shakillantirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus”ning birinchisi ham yoshlarni musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga va jalb etishlariga qaratilgan. Bundan tashqari 02.02.2022-yildagi 112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarori imzolandi. Bu huquqiy hujjatda umum ta’lim maktablari milliy cholg‘ular bilan ta’minlanishi, o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida madaniyat va san’at sohasidagi respublika ko‘rik tanlovlarini o‘tkazish, madaniyat karvonlarini hududlarda konsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazish kabi bandlari alohida e’tirofqa sazovordir. Yurtboshimiz tomonidan bunday qaror va farmonlarning ishlab chiqarilishi va kuchga kirishi nafaqat yosh avlodni balki butun bir xalqimizning madaniyati va milliy mentalitetini xalq ijodiyotini asrashga bevosita turtk i bo‘la oladi deb o‘yayman.

Yuqorida ko'rsatilgan qarorlar va prezident topshiriqlarini amalda ijrosini qo'llashimiz maqsadida o'quvchilarmizning milliy madaniyati, milliy g'urur va iftiharini shakillantirishga erishgan bo'lamiz, prezident Sh. Mirziyoyev 02.02.2022-yildagi yig'ilishida aynan shuni ta'kidlagan edilar: har bir umumta'lim maktablarida har shanba maqom kuni bo'lishini tavsiya etib ta'kidlagan edilar. Yurtboshimiz bu fikrni berishlaridan asosiy maqsad etib shuni nazarda tutganlarki, har tong milliy maqomlarimizni tinglab darsga kirgan o'quvchilarimiz qalbida vatanni sevish, milliyligini yoddan chiqarmaslik, milliy g'urur va yuksak tarbiya bilan o'sib davlatimiz, xalqimizga bo'lgan mehr muhabbatini aks ettiruvchi yuksak vatan tuyg'usiga ega bo'lgan kelajak bunyodkorlari bo'lib yetishib chiqadilar.

Shunday qilib o'quvchilarni ma'naviy madaniyati, ularning ongi, salohiyati, bilim-saviyasi, e'tiqodi, bilim-ko'nikma va tajribalarga asoslangan holda shakillantirish xalqimizning kelajak avlod oldidagi burchi hisoblanadi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni musiqa madaniyati fani orqali ta'lim tarbiyalashda sharq musiqasi, milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlarimiz, o'zbek xalq musiqasi ijodiyoti va allomalarimiz tomonidan bizga meros bo'lib qolgan ilmiy manbalar va kitoblarning o'zni nihoyatda beqiyosdir. Yuqorida keltirganlarimizning barchasi nafaqat o'quvchi yoshlarni balkim butun bir xalqimizning komil inson bo'lib kamol topishida beminnat xizmat qiladi. Bu orqali esa jamiyatni tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati fani o'quv dasturidagi biror bob yoki bo'limning o'rganish tartibini, jamoa bo'lib kuylash va musiqiy bilimlarni mohir pedagoglar o'qitish tizimini yo'lga qo'yishyaptilar.

Takliflar: O'quvchilarni barkamol shaxs etib tarbiyalashda o'zbek xalq musiqasi ijodi to'garaklari tashkil etish va o'quvchi-yoshlarning ma'naviyatini shakillantirish muammosiga oid dolzarb masalalarni ko'tarish;

o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, kasbga yo'llash;

o'quvchilarni ma'naviyatini shakillanishida darsdan keying musiqa to'garaklarini tashkil etish;

to'garaklar davomida o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish;

milliy tarbiyamizga oid "o'zbek tarbiyasi" nomli ilmiy metodikani ishlab chiqish va boshqalar.

Yangi O'zbekistonni bilimli, tarbiyali, barkamol o'quvchi yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz. Butun dunyo tan oladigan milliy mafkuraga ega davlatga aylanishimiz yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashdan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. *O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Madaniyat va San’at sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 02.02.2022 112-son 1-ilova 1a/2a/3a/3b/3d*
2. *Tulkinjon Djurayevich Muxamedov “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal 646*
3. *F.M.Karamatov, “O‘zbek xalq musiqa merosi” Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-1978y*
4. *D.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. Toshkent 2008*
5. *A.I.Odilov Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and sciences*
6. *SH.N.Norova “Scientific Journal” musiqa madaniyati darslarining xususiyati va tuzulishi*
7. *N.X.Ibragimova “Scientific Journal” O‘quvchilarni sharq musiqasi orqali barkamol shaxs etib tarbiyalashning pedagogik omillari.*